BOSHLANG‘ICH TA’LIM PEDAGOGIKASINING JAMIYATDAGI O‘RNI

Shoymatova Gulnoza
Guliston davlat pedagogika instituti stajyor -o‘qituvchisi
shoymatovagulnoza3@gmail.com
Cho‘lliyeva Afzuna
Guliston davlat pedagogika instituti boshlang‘ich
ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
afzunacholliyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limning mohiyati va mazmuni, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining o‘qitilishi va undagi muammolar, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining jamiyat hayotiga ta’siri bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, pedagogika, innovatsiya, integratsiya, dars, inklyuziv ta’lim, metod.

Abstract. This article describes the nature and content of primary education, the teaching of primary education pedagogy anot its problems and its impact on the life of society.

Keywords: elementary school, pedagogy, innovatsion, integration, lesson, inclusive education, method.

Ta’lim va tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Undan keyin esa maktabgacha va maktab ta’lim tashkilotlarida davom ettiriladi. Xalqimiz orasida ham yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir deb ta’-kidlanadi. Bunday bilimni esa boshlang‘ich sinfdayoq berish maqsadga muvofiqdir. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda bilimning shakllanish davri hisoblanadi. Aynan tarbiya ham bu davrda qanday yo‘sinda berilsa umri davomida shu tarbiya ta’sirida bo‘ladi. O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limga oid ilmiy- tadqiqotlar XX asrdan boshlab amalga oshirilgan.

Boshlang‘ich sinf tarbiyalovchi pedagog qanday bo‘lishi kerak? Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" asarida ta’kidlanganidek o‘qituvchi" malak qiyofali" bo‘lishi kerak. Odob-axloqi, etika-estetikasi, nutqi va bilim, ko‘nikmalari bilan o‘rnak bo‘lishi kerak. Pedagog bu tarbiya jarayonining qonuniyatlarini, tarkibi va tashkil etish mexanizmlarini tadbiq etadi, tarbiyaviy va o‘quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo‘sinlarini belgilab beriluvchi shaxs hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi fani 2020-2021-yillar pandemiyadan keyin talim tizimimizni yanada takomillashtirish maqsadida joriy qilingan fan hisoblanadi. Ushbu fanning ta’lim dasturi 2021-yilda ishlab chiqilgan va Oliy ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan. Jumladan bu fanning asosiy tarkibiy qismini 5 ta modulga bo‘lingan. Bular:

1-modul. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining nazariy asoslari.

2-modul. Boshlang‘ich ta’lim didaktikasi.

3-modul. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasida tarbiya nazariyasi.

4- modul. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya.

5- modul. Boshlang‘ich ta’limda integratsiya.

Mazkur fan o‘qituvchisi va pedagoglarni tarbiyalashda asosiy fan hisoblanib oliy ta’lim tizimida joriy qilingan. Ushbu fanning bir necha fanlar bilan aloqadorli mutaxasislarni har tomonlama yetuk kadr bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. "Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi" fanining umumiy pedagogika, pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik mahorat, pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik texnologiya, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ta’limda normativ hujjatlar fanlari bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi.

Bu fan o‘qitilishi asosida ko‘nikma va bilimga ega kadrlarni tayyorlashda asosiy rol o‘ynaydi. Tom ma’noda jamiyat hayotini barpo etishda ham ushbu fanning o‘rni beqiyos. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim konsepsiyasida ham o‘qituvchi-mutaxasis oldida turgan vazifalar quyidagicha belgilab qo‘yilgan:" Mutaxasis malakasi- chuqur umumiy bilim, keng dunyoqarash, kasb tayyorgarligi, kompyuter savodxonligi, o‘z bilimini tezlik bilan yangilash va to‘ldira olish qobiliyati singari omillardan tashkil topadi" deyilgan. Hozirgi kunda talim tizimida yoshlarga bilim berish asosini o‘qituvchilar tashkil qilmoqda. Bugunga qadar maktablarda inklyuziv sinflar tashqil gilingan bo‘lib ularda bolalarga faqat maxsus sertifikatga ega o‘qituvchilargina dars berishi mumkin edi. Hozirgi kunga kelib Oliy ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim fani tashkil qilingani uchun bo‘lajak o‘qituvchilar hech qanday muammosiz ta’lim berishga haqli. Bu esa o‘qituvchi va pedagoglarning jamiyat oldida yetuk kadr bo‘lishini ta’minlaydi.

Ta’lim va tarbiya berish pedagogning asosiy vazifasi hisoblandi. Hozirgi davrda axborot kommunikatsiyalari tez suratlarda rivojlanmoqda. Shu texnalogiyalardan foydalanilgan holda dars otish ham o‘qitishning samarali bo‘lishiga zamin yaratilmoqda. Yangicha metod va texnalogiyalar yosh avlodning zamon bilan hamnafasligini oshirmoqda. Shu munosabat bilan ta’lim tizmimiz ham sezilarli darajada tarqqiy etmoqda. Buning barchasining negizida o‘qituvchi va mutaxasislarning, professor o‘qituvchilarning, tatqiqotchi olimlarning mehnati mujassamdir. Shuning uchun ham yurtimizda 1-oktabr kuni " O‘qituvchi va murabbiylar kuni" sifatida keng nishonlanib kelinadi. Bu ularga nisbatan berilgan e’tiborning ramzidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchini tarbiyalash, shaxsni tarbiyalash pedagogning asosiy vazifasi hisoblanadi. Oila va jamiyat esa birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishga ko‘maklashadi. O‘qituvchi esa mazkur jarayonda o‘qitadi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi, tarbiyalaydi, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” gi (O‘RQ-901-son 01.02.2024y)

2. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi “ (PF-5847- son 08.10.2019)

3. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi innovatsiya, integratsiya. G‘afur G‘ulom.T-2013.

4. Tursunov S.Q. Ta’limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Monografiya. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2018-y.

5. Turdiyeva G. Raqamli talim platformalari talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish konikmalarini shakllantirish vositasi sifatida //(buxdu. uz). – 2023. – T. 35. – №. 35.